

JURNALIST SURISHTIRUVI OLIB BORISH METODIKASI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar
kafedrasi o'qituvchisi
G'aniyeva Mehrangiz
mehrangizganiyeva@gmail.com.tel
+998771073560

Annotatsiya

Ushbu matnda jurnalist surishtiruv jarayonida axborot manbalari bilan ishlashning o'ziga xos uslubiy va xavfsizlik jihatlari yoritilgan. Xususan, asabiy holatda bo'lgan guvohlar bilan "ovozni yozib olmasdan" (*off the record*) suhbatlashish sirlari, respondent anonimligini ta'minlash hamda to'plangan audio, video va hujjatli materiallarni ishonchli saqlash choralariga to'xtalib olingan. Shuningdek, surishtiruv materiallarini tahririyatga taqdim etishdagi risklar—vaqt, mablag' sarfi hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy (sud) nizolar tahlil qilingan. Matbuotdagi ochiq ma'lumotlar (OSINT) va rasmiy statistikalar surishtiruv uchun boshlang'ich nuqta bo'la olishi ko'rsatib berilgan. Hujjatlarning tasnifi (yozma, ovozli, tasviriy) keltirilib, ularning haqiqiylikni tekshirishda fakt va fikrni farqlash hamda birlamchi-ikkilamchi manbalarni aniqlashning muhim mezonlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Jurnalist surishtiruv, ovozni yozib olmasdan suhbatlashish, manba anonimligi, xavfsizlik va ma'lumotlarni saqlash, tahririyat mas'uliyati, ochiq manbalar bilan ishlash, hujjatlar tasnifi, haqiqiylikni tekshirish, birlamchi va ikkilamchi axborot

Ko'p hollarda surishtiruv markazida bo'lgan insonlar ochiq gapirishga ikkilanadilar. Xo'sh, bunday asabiy holatda turgan manba, guvohdan qanday qilib ovozini yozib olmasdan intervyu olish mumkin. Shunday holatda, suhbatning boshidanoq siz suhbatlashayotganingizni anglatib qo'yishingiz va suhbat manbasi yashirin qolishiga kafolat berishingiz muhim. Xo'sh, "Ovozni yozib olmasdan" yohud matbuot uchun mo'ljallanmagan" suhbatlashish degani nima. Yozayotgan materialingizda suhbatlashgan kishingizning nomini, uning shaxsiy ma'lumotlarini bermaysiz.

Bunday vaziyatlarda jurnalist quyidagilarga ahamiyat berishi lozim. Barcha yozib olingan video, audiolar hamda hujjatlarni asrang. Imkoni bo'lsa, nusxalarga ko'paytirib qo'ying. O'zingiz uchun muhim bo'lgan yozuvlarni ehtiyotkor bo'lgan holda, nusxalarga ko'paytirib qo'ying. Muhim kontaktlarning elektron pochta, uy va mobil telefonlari raqamlarini doim saqlab yuring. Jurnalist surishtiruv uchun muhim

bo'lgan hujjatlar esa doimo asl va ko'chirma nusxalari bilan birgalikda saqlanishi lozim.

Taqdim qila olish. Ko'pincha bosh muharrirlar o'z xodimlariga jurnalist surishtiruv olib borishlari uchun ruxsat berishmaydi. Chunki, surishtiruv xatarli bo'lishi bilan birga, unga juda ko'p vaqt va mablag' sarflanadi. Ustiga ustak shuncha mehnat yakunida ko'zlangan natijaga erishiladimi yoki yo'qmi hech qanday kafolat yo'q. Keyinchalik kimdir tuhmat yoki bo'xton bandi bo'yicha tahririyatni sudga berish mumkinligi, ehtiyotkor muharrirlarni unchalik baxs- munozara talab qilmaydigan mavzularni tanlashga undaydi. Sababi, sudlashish qanday natija bilan tugamasin, bu tahririyat obro'si va budjeti uchun juda katta zarar keltirishiga sabab bo'lishi mumkin. Jurnalist surishtiruv jarayonida yo'l qo'yilgan biror bir kichik xato ham OAV yopilib ketishi mumkin. Barchamizga ma'lumki, qaysi OAV da taqdim etilgan material bo'lmasin jurnalist va butun tahririyat chiqqan har bir material uchun birdek ma'suldir.

Matbuotni o'qing. Jurnalist yozmoqchi bo'lgan surishtiruv uchun, matbuotda e'lon qilingan manbalar ham as qotishi mumkin. Masalan, buzilgan ko'chmas mulk agentligi, sayohat agentligi yoki katta shirkatning aksiyadorlari tarkibidagi o'zgarishlar, statistikalar, narx-navo, hisobotlar hamda ko'pchilikni e'tiborini tortmaydigan ochiq manbadalarda e'lon qilingan ma'lumotlar. Jurnalistik tekshiruvining boshlangich nuqtasi sifatida bunday axborotdan foydalanish juda muhim. Odatda, yirik kompaniyaning boshqaruv kengashi tarkibini o'zgartirish haqida manbalar ham, juda ko'p sirlarni ochishi mumkin. Sababi, ular nega ishidan bo'shatildi? Nega yangi rahbar saylandi? Ushbu savollar yordamida surishtiruv mohiyatini aniqlasa bo'ladi.

Hujjatlaringizni qidiring. Jurnalist surishtiruv olib borayotgan jurnalistga korxona va idoralaridan kelgan barcha hujjatlarni diqqat bilan kuzatib borishi tavsiya etiladi. Hujjatlarning juda ko'p tasniflari mavjud. Umum qabul qilingan tasnifga ko'ra hujjatlar yozma (ma'lumotlar, hisobotlar, buyruqlar va hokazo), ovozli (magnitofon yozuvlari, fonetik materiallar) va tasviriy (videotasvirlar, ikonografiya, hujjatlari va hokazo) bo'lishi mumkin. Axborot saqlashning yangi shakli kompyuter diskleri esa uchala turga ham mansub. Ammo ular hujjatlarning alohida sinfini tashkil etadi.¹ Hujjatlarning quyidagi turlari mavjud: ma'muriy-davlat, ma'muriy-ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, me'yoriy-texnikaviy, ma'lumotnoma-axborot, badiiy, maishiy.

Hujjatlarning haqiqiylikini tekshirish jurnalistning hujjatlar bilan ishlash jarayonidagi eng muhim ishdir. Ba'zi hollarda hujjatdagi ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirishda qabul qilingan qoidalarga asoslanishi mumkin. Ularga muvofiq hujjatlarni tahlil qilishda quyidagilarni e'tiborga olish zarur.

– Voqealar tasnifi va ularning talqini(faktlar va fikrlarni) farqlash;

26.Mamatova.Y. Sulaymonova. S. Haqiqat izlab: O'zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorligi omillari– Toshkent .:"Extremum- Press", 2015. B-8

– Hujjatni tuzuvchi qaysi axborot manbalaridan foydalangani, ularda taqdim etilgan axborot birlamchi yoki ikkilamchi ekanini aniqlash;

– Hujjatni tuzuvchining uni yaratayotgan paytidagi maqsadi tayangan niyatlarni aniqlash;

– Hujjat yaratilgan sharoit uning sifatiga qanday ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligini hisobga olish.

Tashkillashtirish ishlari jurnalistga ko'pgina muammolardan qochishga yordam berishi mumkin. Ular quyidagicha tasniflanadi.

– Jurnalist qanday hujjatlarga egaligini va ularda qanday ma'lumotlar borligini bilishi;

– U yoki bu ma'lumotning qayerdaligini bilishi va ularni darhol topa olishi;

Jurnalist o'z zahirasi tashkil etuvchi faktlar orasidagi aloqalarni ko'ra olishi kerak. Jurnalist surishtiruvda hujjatlar ustida usulining mohiyati va ahamiyatini ko'rib chiqishni yakunlar ekanmiz, ushbu mehnat ancha murakkab va sinchkovlikni talab etishini qayd etmoqchimiz. Surishtiruvchi jurnalist hisobotlar, turli qaydnomalar, ma'lumotnomalar, ma'ruzalar, bayonnomalar, ommaviy axborot vositalarining materiallari va hokazolardan iborat tog'day uyumni yengib o'tishi zarur.

Sinchkovlik. Axborot manbalari ochiq, yarim ochiq va yashirin bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda firma yoki korxonalarining raqiblari, OAV ga shikoyat bilan murojaat qilib, jurnalist surishtiruvni o'tkazishni talab qilishadi. Bunday vaziyatlarda ular, noto'g'ri informatsiyalar, qalbaki hujjatlardan foydalanishlari mumkin. Shunda jurnalist uchun muhim xususiyat bu sinchkovlikdir.

Jurnalist surishtiruv uchun yana bir muhim jihat birlamchi axborotni yig'ish va qayta ishlashdir. Ushbu bosqich ikki asosiy qismdan iborat. Birinchi qism - obyekt yoki hodisalar haqida ochiq manbalarda ma'lumot yig'ish. Ikkinchi qism - turli ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan obyektiv axborotlarni izlashdir.

Ochiq manbalar bo'yicha axborot yig'ish - bu kutubxonaga tegishli. Siz qiziqqan mavzudagi barcha ommaviy axborot vositalarini ko'taring, internetdan foydalaning va kerak bo'lganda - arxivlarni. Natijada, siz o'zingiz qimmatbaho axborot mahsuloti bo'lgan faylning egasi bo'lamiz.

Izchillik. Jurnalist surishtiruvda faktlar, ma'lumotlar, intervyular, hujjatlar yoki xatlarni berishda, jurnalist izchillik, birin-ketin ma'lumotni mohirona tarzda berishi surishtiruvning o'qishli bo'lishini yanada oshiradi.

Jurnalist tomonidan ilgari surilgan har bir ma'lumot haqqoniy bo'lib chiqishi mumkinligi hikoya sifatida bayon etiladi. U o'zida yangilikni, uning sababini va yechim variantini qamrab olishi kerak. Bu jurnalist gipotezani ko'z oldiga tasavvur qilgan holda, butun diqqat-e'tiborni shunchaki ayrim faktlarga qaratmagani, balki muammoni to'la yoritishga intilayotganini bildiradi.

Faktlar syujetga asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Ammo ular gipotezani hikoya qilib bera olmaydi. Faktlarni syujet taqdim etadi. Ma'lumotlarning "zanjirli tizim" asosida berilishiga quyidagi surishtiruvni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

"Boston Globe" gazetasida 2002-yil chop etilgan "Katolik cherkovining inqirozi" nomli maqolasini manbalardan mohirona tarzda foydalanilgan jurnalist surishtiruviiga misol bo'la oladi. Unga ko'ra, katolik ruhoniysi Jon Geogan 130 dan ortiq bolalarni zo'rlaganlikda ayblangan. Tahqirlangan bolalar boshlang'ich sinf o'quvchilari bo'lib, hatto ulardan biri to'rt yoshda edi. Katolik cherkovining 6 nafar arxiyepiskobi va kardinant Bernard, Geoganni ruhoniylikka tayinlangan yilidayoq, bolalarga qilayotgan tajovvuzlaridan xabardor bo'lgan. Ammo hammasiga ko'z yumib uning ishlarini sir tutgan. Chunki, o'z mavqei hamda odamlarning cherkovga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishlarini xohlamagan.

Unda manbalardan qay tarzda foydalanilgan?

Birinchi o'rinda, muammo obyekti o'rganilgan. Ya'ni ikkita tibbiyot muassasasi jinsiy zo'ravonlik natijasida juda ko'p bolalar aziyat chekayotgani haqida tahririyatga xat bilan murojaat qilishgan. Bu jurnalist surishtiruvi o'tkazish uchun sabab bo'ldi. "Boston Globe" gazetasining "Spotlight" (Spotlayt) jamoasi hujjatlar va turli faktlarni ko'zdan kechira boshladi. Ma'lum bo'lishicha, Arxiyepiskop allaqachon Geoganning bolalarga nisbatan bo'lgan munosabatini bilgan. Uning 1980-yilgi bayonotiga ko'ra Geogan bir oiladan yetti nafar bolani tahqirlaganini qayd qilgan. Geoganga ruhoniylar tayyorlaydigan maktabning uchta bolalar guruhi topshirildi. Kasalxonalaridan Geoganni ayblashga doir bir qator arizalar tushganiga qaramay, Arxiyepiskop ularni Jorji Yuliyaga qaytarib berdi. Bundan foydalangan Geogan yana uch yil bolarni zo'rlashda davom etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi.—T: Akademiya, 2002. B-139 . 3.2. Karvonali H. Ilg'ab borayotir meni fasllar.—Toshkent.: "Yangi Nashr" nashryoti, 2004.B-46
2. Журналист суриштируви. қисқача таъриф ва тавсиялар.—Т.: 2002. Б-98 . Fan" nashryoti, 1993.B-46
3. Obidov.M. Jurnalist surishtiruvi: tajriba va tahlil. —Farg'ona.: "Farg'ona" nashryoti, 2018.B-91.
4. Mamatova.Y. Sulaymonova. S. Haqiqat izlab: O'zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorligi omillari— Toshkent .:"Extremum- Press", 2015. B- . 3.10. Якубов С.С. Ўзбекистон матбуотида журналист текшируви: шаклланиши, тематикаси ва ривожланиши муаммолари ("Хуррият", "Халқ сўзи" ва "Хуқуқ" газеталарининг 2003 - 2007 й.й. материаллари мисолида). Магистрлик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Т.:ЎЗМУ, 2008.Б-234